

## DUTORCHILAR TO'GARAGINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Abdumannatova Aziza Abdumajidovna

O'zFinPI, "Musiqa ta'limi" kafedrasи o'qituvchisi

Axadqulova Marg'iyona Samariddin qizi

"Musiqa ta'limi" yo'nalishi talabasi

[azizaabdumannatova@gmail.com](mailto:azizaabdumannatova@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Maqlada dutorchilik to'garagini tashkil etishda pedagogik yondashuvlar, metodik usullar, materiallar va texnik sharoitlarning ahamiyati haqida so'z boradi. Umumta'lim maktablarida dutorchilar to'garagini tashkil etish, o'quvchilarda ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali musiqa san'ati va ularda ilgari surilgan g'oyalarning tarbiyaviy jihatlarini, shaxs kamolotidagi ahamiyatini to'garak faoliyati jarayonida keng targ'ib qilish muhimdir.

**Kalit so'zlar:** pedagogik xususiyatlar, dutor cholg'usi, ko'nikma, ijrochilik, to'garak rahbari, o'quvchi, pedagogik mahorat, umumta'lim maktablari, dutorchilar to'garagi,

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqa ta'limi bilan bog'liq barcha jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Maktab ta'limida musiqa to'garaklarini pedagogik talablar asosida tashlik etish o'quvchilarda ijrochilik malakalarini rivojlantirishga va bunday jarayon orqali o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Dutorchilar to'garagida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar: to'garakning maqsadi va mohiyatini yoritilganligi, o'quvchilarni milliy musiqa ruhida, keng dunyoqarashli, badiiy did egalari etib tarnbiyalash, mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijrochiligiga moslab repertuar tanlash, to'garakni mazmunli olib borishda o'qituvchilarning pedagogik mahorati inobatga olinadi[7].

O'quvchilarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, ruhiy va moddiy sharoitlar hamda to'garak faoliyatini samarali boshqarishning metodik jihatlari tahlil qilish musiqa to'garagining pedagogik xususiyatlarini belgilaydi. Shuningdek, dutorchilar to'garagini tashkil etish jarayonida o'qituvchining roli, uning pedagogik mahorati va o'quvchilarning rivojlanishini monitoring qilish usullari hamda baholash tizimiga alohida e'tibor qaratish muhim.

Aynan to'garak mashg'ulotlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishning didaktik qulayligi mavjudki, ular musiqa darsi bilan musiqiy to'garaklar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. To'garak mashg'ulotlari bilan dars o'rtasidagi umumiyliliklarga mashg'ulotlarning pedagogik shart-sharoitlari, ya'ni tashkiliy shakli, to'garak rahbarlari qo'llaydigan metod va usullar, mashg'ulotlarda o'quvchining faolligi va tashabbuskorligiga erishish va unga tayanishdir. Musiqiy to'garaklar o'quvchilarda qobiliyati, ijodiyotning tarkib topishi, shakllanishi va o'sishi uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, tarbiyaviy ishlar dars jarayoni bilangina cheklanib qolmasdan, balki, darsdan tashqari vaqtarda ham davom etadi. To'garak mashg'ulotlari jarayoni muammolarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash, mazmunini chuqurlashtirish va ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, oila, maktab va maktabdan tashqari ta'lim jarayonlari uzviyligini ifodalaydi. Bu uzviylik asosida o'quvchi-yoshlarni mamlakatimiz taraqqiyotida faol ishtiroy etishga tayyorlash, ularda Vatan ravnaqi,

yurt tinchligi, xalq faravonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish hozirgi kun pedagogikasining dolzarb vazifasidir.

Maktabdagagi dutorchilar to‘garagida o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga erishadilar:

1. Musiqiy bilimlar. O‘quvchilar dutorning asosiy qismlari va uning tuzilishi, uning tarixiy rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Notalar, musiqiy interval va akordlar, temp va dinamikani tushunish va ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini egallaydilar. Musiqa asarlarini tinglab, uning tuzilishini va melodiyasini anglash qobiliyatini rivojlantiradilar.
  2. Ijro etish ko‘nikmalar. O‘quvchilar dutorda ijro etish texnikasini o‘rganadilar, asosan, turli uslublarda va turli musiqiy janrlarda ijro qilishga o‘rgatiladilar (masalan, xalq musiqasi, klassik musiqalar). Musiqiy asarlarni ijro etishda hissiyot va ifodali texnikalarni ishlatish, o‘zini ifodalash va musiqani eshituvchi bilan o‘zaro aloqada bo‘lishni o‘rganadilar. To‘garakdagi guruhda ishslash, dutorchilar ansamblikda, orkestr yoki yakka ijro etish ko‘nikmalarini egallaydilar.
  3. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. O‘quvchilar musiqiy improvisatsiya qilishni, yangi asarlar yaratishni o‘rganadilar, bu ijodiy tafakkur va musiqiy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchilar musiqiy asarlarni tahlil qilishda qanday tuzilganligini, melodiyaviy va ritmik jihatlarini, kompozitsion elementlarni anglashni o‘rganadilar.
  4. Ko‘nikmalarini baholash va o‘zini o‘rganish. O‘quvchilar o‘z ijrolarini tinglab, noto‘g‘ri bajarilgan qismlarni tuzatishga va o‘z ustida ishslashga o‘rganadilar. O‘quvchilarga musiqani yaxshiroq o‘rganish uchun mustaqil ishslash, mashg‘ulot jarayonida o‘rgangan bilimlarini qo‘llash va takomillashtirishga imkoniyat yaratiladi.
  5. Musiqiy madaniyat va estetik didni shakllantirish. O‘quvchilar turli janrdagi musiqalarni tinglab, ularning estetik va madaniy ahamiyatini tushunadilar. Bu, o‘z navbatida, ularning musiqiy didini shakllantirishga yordam beradi. To‘garakda ijro etish va musiqiy asarlarni birgalikda ijro qilish, o‘quvchilarni bir-birlari bilan muloqot qilishga, musiqiy tushunchalar va tajribalari bilan o‘rtoqlashishga rag‘batlantiradi.
  6. Shaxsiy rivojlanish. Dutorchilar to‘garagida ansamblikda ijro etish orqali jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. To‘garakda qatnashish o‘quvchilarni tartib va mas’uliyatga o‘rgatadi. Ular o‘z ishlarini va darslarga tayyorgarlikni rejalashtirishni o‘rganadilar.
- Umumta’lim maktablarida dutorchilar to‘garagini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari to‘garakning asosiy maqsadi va unga qo‘yiladigan pedagogik talablardan kelib chiqadi hamda o‘z oldiga o‘quvchilarning musiqiy va ijodiy qibiliyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan qator vazifalarni belgilaydi, bunda:
- Dutorchilar to‘garagini tashkil etilishining pedagogik asoslarini inobatga olish lozim va metodik yondashuvlar, uslublar va texnikalar muhim sanaladi;
  - Dutorchilarga o‘rgatishda faoliyatga asoslangan metodlar va mashg‘ulotlarning samaradorligi hamda to‘garak rahbarining pedagogik mahorati ham e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq;
  - O‘quvchilarning to‘garakda faol qatnashishiga qiziqishi, ijodiy erkinlik, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyatlari hisobga olinadi;
  - Ansambl ijrochiligida ishslash, dutor ijrochiligin o‘rganishda jamoaviy ish va musiqa ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- Dutorchilar to'garagi mashg'ulotining natijalarini maktab tadbirlarida aks ettirish imkoniyatlari hamda musiqiy ko'nikmalar, ijodiy yondashuv va ijrochilikni rivojlanshini kuzatish imkoniyatlariiga erishish;

Mazkur vazifalarning bajarilishi maktab ta'limida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirishga asos bo'ladi. Bu esa ta'lim tizimi oldida turgan qator maqsadlarni amalga oshishiga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020 yil 13 martdag'i "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi KQ-20-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdag'i PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori,
3. 2017 yil 31 maydag'i "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori,
4. 2022 yil 2 fevraldag'i "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 112
5. Azizzadjayeva N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogikmaxorat"(o'quv qo'llanma) T. 2006.
6. Soipova, D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Musiqa. (2019).
7. B. Rahimjonov " Dutorchilar ansamblı " T. 2002-y 39-bet
8. Dutor darsligi Gulchehra Muxamedova Toshkent 2011-yil 5-10 bet.